

DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Sharofutdinova Ranokhon Shavkatovna

Fergana State University

teacher

Abduvaliyeva Khushnoza Abdukhamid qizi

Fergana State University

Annotation: As the scope of knowledge of primary school students expands, their worldview and thinking about the nature and environment they are familiar with will change and develop. The attitude of a child who has just entered school is not up to standard. They begin to acquire all of these knowledge, skills, and abilities in the learning process under the direct guidance of a teacher. It appears that the extent to which a student achieves results will depend on the teacher's efforts, teaching style, and methods. Nowadays, the development of students' critical thinking is started from the elementary grades. Creating problem situations, finding and identifying ways to solve them, the problem-solving process itself, and verifying in practice how accurate the conclusions are remained important elements of the learning process. And that's exactly what elementary school teachers are trying to do.

Keywords: elementary school, methods, critical thinking, consortium, logic, Presidential School,

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna

Farg'ona davlat universiteti

o'qituvchisi

Abduvaliyeva Xushnoza Abduxamid qizi

Farg'ona davlat universitet

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim doirasi kengaya borgan sari ularga tanish bo'lgan tabiat va muhitga nisbatan dunyoqarashi va fikrlashi o'zgarib, rivojlana boradi. Maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan bolaning o'z atrof-muhitiga nisbatan munosabati talabga javob beradigan darajada bo'lmaydi. Ular bu bilim, malaka va ko'nikmalarning barchasini o'qish jarayonida bevosita o'qituvchi rahbarligi ostida erisha boshlaydilar. Bundan ko'rinadiki, o'quvchining natijasi qay darajada bo'lishi o'qituvchining sa'y-harakati, dars uslubi va metodlariga bogliq bo'lib qoladi. Hozirgi kunda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish boshlang'ich sinflardan boshlab yo'lga qo'yilmoqda. Muammoli vaziyatlar yaratish, ularni hal qilish yo'llarini izlash va aniqlash, muammoni hal qilish jarayonining o'zi, chiqarilgan xulosalarni qanchalik to'g'ri ekanligini amalda tekshirib ko'rish o'quv jarayonining muhim elementlari bo'lib qolmoqda. Bu esa aynan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yanada ilg'or bo'lishga chorlaydi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, metodlar, tanqidiy fikrlash, konsorsium, mantiqiy masala, Prezident maktabi,

Tanqidiy fikrlashning kelib chiqishi va shakllanishi qadimgi zamonlar bilan bog'liq bo'lib, u o'sha zamonlarda ham inson xotirasining faollashuviga, narsalar, jarayonlar va boshqa hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borishiga yordam bergan. O'zi tanqidiy fikrlash nima?

Fikrlash bu- o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshatishga o'xshash jarayon bo'lib, u o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oluvchi faol jarayon.

Ta'lim tizimida maktab yoshidagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar "Demokratik ta'lim uchun" konsorsiumi tomonidan amalga oshiriladigan "Tanqidiy fikrlash uchun o'qish va yozish" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, tanqidiy fikrlashning faol metodlari asosida bir necha asoslar kelib chiqadi. Ular quyidagilardan iborat:

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordon (1979) lar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;

- o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;

- o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;

- fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Izn. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun ma'qul va noma'qul narsalarni aytishi, ular haqida fikrlashi, ijod qilish uchun o'z o'rnida ularga erkinlik yaratib berish ham talab etiladi. O'quvchilar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar. Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakka-yu yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda o'quvchilarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida o'quvchilar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi o'quvchilarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. O'quvchilarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi. Mixail Chikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, o'quvchilar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida "ahmoqona g'oyalar" aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi buni o'quv jarayonining tabiiy holati sifatida o'quvchilarga tushuntirishi lozim. O'quvchilarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, o'quvchilarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muhitda o'ylash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri o'quvchilarning fikrlash jarayonini qadrlashidir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida o'quvchilar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holda chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Ana shundagina o'quvchilar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Qimmatlilik. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarga fikrlash jarayonini tashkil etish davomida ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi o'quvchilardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa o'quvchilarda o'zgal g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab

chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida o'quvchilarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. O'quvchilarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

O'zaro fikr almashuv. Fikrlash jarayoni o'quvchilarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. O'quvchilarning o'zaro fikr olishishi ularning bir – biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. O'quvchidan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi. O'zaro fikr olishishda o'quvchilardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban o'quvchilar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibatida o'quvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch hosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;
- o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr almashish;
- o'zgalar fikrini tinglay olish.

Bugungi kunda ilg'or o'qituvchilar o'quv jarayonining yangi strukturasi yaratishga harakat qilmoqdalar. Bilimlarni o'zlashtirish, malakalar hosil qilish o'quvchilarning mustaqil amaliy va aqliy faoliyatlari natijasida sodir bo'ladi. Muammoli vaziyatlar yaratish, ularni hal qilish yo'llarini izlash va aniqlash, muammoni hal qilish jarayonining o'zi, chiqarilgan xulosalarni qanchalik to'g'ri ekanligini amalda tekshirib ko'rish o'quv jarayonining muhim elementlari bo'lib qolmoqda. Agar o'quvchi oldiga biror vazifa qo'yilsa, bu vazifa unda qiziqish uyg'otadi va o'quvchi bu vazifani hal qilishga urinadi, ammo u o'z bilimlari hamda tajribalari yetarli darajada emasligini payqaydi, ya'ni qiyinchilikka duch keladi. Aksariyat o'quvchilarda shu muammoni hal qilish uchun ular ehtiyoj tug'iladi va ulardagi bu ehtiyoj qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tanqidiy fikrlash faoliyatini uyg'otadi. Taniqli psixolog L.V.Zankov kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini o'stirish maqsadida o'zining ta'lim tizimini ishlab chiqadi. Bu ta'lim tizimi ushbu o'qitish tamoyillariga asoslanadi:

- 1) Ta'lim jarayonini yuqori darajadagi murakkab vaziyat asosida uyushtirish;
- 2) Ta'lim jarayonida o'quvchilarga berilishi nazarda tutilgan bilimlarning nazariy salmog'ini maksimal darajada ko'paytirish;
- 3) Mustaqillik, o'z-o'zini nazorat qilish faoliyatini rejalashtirish singari faoliyatni boshqarish usullarini o'quvchilarda tarkib toptirish.

Bunday ta'lim tizimida o'quvchilar chuqur va mazmundor bilim olish bilan cheklanib qolish, balki ularning aqliy faoliyati ortib, mavhum tafakkuri rivojlangan, aqlan o'sgan, o'qishga nisbatan ijobiy munosabati vujudga kelgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilim tizimini, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallashi, qolaversa tafakkur olami va mantiqiy-tanqidiy fikr yuritish qobiliyatlariga bevosita o'qituvchi rahbarligi ostida erishadilar. Masalan, I sinfda o'qituvchi izohli o'qish darslarida o'quvchilarga hayvonlar va hasharotlar, yil fasllari, o'quv qurollari yoki uy jihozlari, meva-sabzavotlar, tabiat hodisalari haqida so'zlab berar ekan, ularning muhim xususiyatlari, alomatlari, belgilari, rangi, maza-ta'mi kabi xususiyatlarini tahlil qilib beradi. Buning natijasida o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan predmetlar haqida yanada aniqroq tushuncha olib, ularning tub mohiyatiga tushunadilar. II sinfga o'tgach, endi ular buyumlarning umumiy va farqli xususiyatlariga, o'ziga beixtiyor tortib turuvchi tashqi va ichki belgilariga tayanib fikr yuritadilar. III-IV sinfga kelib esa ular bilim doirasi ancha kengaygan bo'lib, ma'lum bilimlar tizimi hosil bo'lgan. Ular turli vaziyatni dalillar asosida isbotlab berishga o'tadilar, bu davrga kelib hukmining chin yoki yolg'on ekanligini anglab yetadi. O'quvchilar narsa va hodisalarning paydo bo'lish sabablarini aniqlash paytida masala va savol qo'yishdan tashqari, muammoli vaziyatni hal qilishga odatlanadi. Ularda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematika masalalarini yechish, murakkab

chizmalar bilan tanishtirish, muammoli vaziyat paydo qiladigan hikoya va rivoyatlarni o'qish kabilar muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, III sinf o'quvchilarida mavhum narsalarni ham aqliy analiz qilib, voqelikning ichki bog'lanish xususiyatlarini umumlashtirish qobiliyatlari shakllana boshlagan bo'ladi.


Shu navbatda, men boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar bilan ishlash mobaynida ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi bir necha metodlarni ishlab chiqdim, amalda sinab, o'ylagan maqsadimga ma'lum darajada erishdim. Ushbu metodlarning har birida o'quvchining aqliy rivojlanishiga yordam beruvchi ma'lum bir maqsadlar ko'zlangan. Qaysidir metod o'quvchini diqqatini jamlashga, yana biri dunyoqarashini o'stirishga, o'z fikrini ayta olishga va yana boshqasi esa o'ziga bo'lgan ishonchni paydo qilishga qaratilgan. Bu metodlar quyidagilardan iborat.

❖ O'qituvchi dars jarayonida albatta doskadan foydalanadi. Bilamizki, doskaga har darsda yoziladigan so'zlar bu- sana va dars mavzusi hisoblanadi. Aynan shu doska bilan ishlash jarayonida ham o'qituvchi o'quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirib borishi mumkin. Ya'ni o'qituvchi doskaga sana va mavzuni yozayotganda ataylab 1-2ta imloviy xatoga yo'l qo'ysa, o'quvchilar doskadan ko'chirish jarayonida bu xatolarni topadilar. Bu o'quvchilarning kuzata olish qobiliyati bilan birga, o'ziga nisbatan ishonch bilan o'qituvchiga o'z fikrini bayon qila olish qobiliyatini rivojlantiradi.

❖ "2021-2022- o'quv yili uchun nashr ettirilgan 1-sinf ona tili darsligining 1-bob 2-darsida "Hoshimjonning oilasi" mavzusida hikoya audiosi tinglash topshirig'i berilgan. 1-2-sinflarda ulardan audiomatni tinglab, matnning mazmuni yoki matn yuzasidan qisqa savol-javob tarzida o'tkazilsa, 3-4 sinf o'quvchilariga biroz murakkablashtirish mumkin. Ya'ni, eshitilgan audiomatnda qanday so'zlar ko'p uchradi(misol uchun qaysi ismlar, joy nomlari, qaysi belgi bildiruvchi so'zlar ishtirok etganligi) degan savollar orqali ularning tinglab-tushunish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

❖ Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarga turli xil rasm va rangli predmetlar bilan dars o'tilsa, ularda fikrlash aniqligi va qiziqish tezroq uyg'onadi. Shu sababli rasmlardan foydalangan holda ona tili faniga bog'lab rasmga oid savollar berib, matn yozdirish yoki matematika mavzusiga doir sanash bilan bog'liq va ma'lum ketma-ketlikni topish, narsalarning joylashuvini eslab qolish mashqlarini bajarish ham foydali hisoblanadi.

❖ O'quvchilarda jonli va jonsiz predmet haqidagi mavjud bilimlarni umumiyashtirish va ularni taqqoslash orqali ularning fikrlashini o'stirish mumkin. Masalan, quyidagi diogramma kabi hikoyadagi ikki qahramon obrazini yoki ularga tanish narsa-predmet orqali ularga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarning farqli jihatlari taqqoslanadi hamda bir-biriga o'xshash tomonlari umumiyashtiriladi.



Yuqoridagi metodlar orqali ularning diqqatini jamlashga, o'z fikrini bayon etish, tinglab-tushunish qobiliyatlarini shakllantirib olgan bo'lsak, undan so'ng ularni tanqidiy fikrlashga undaymiz. (bu bosqich ko'proq 3-4- sinflar uchun o'rinli hisoblanadi)

❖ **Muammoli vaziyat metodi**- o'quvchilarga muammoli vaziyatning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ularda ilk ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metod. Bu metod ko'proq vaqtni talab etadi va metod uchun tanlangan muammo murakkabligi ularning bilim va yosh darajasiga mos kelishi kerak, aks holda yechimini topa olmagach, o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qolib qolishiga olib keladi. Bu metod qo'llanilganda o'quvchilar mustaqil fikr yuritilishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

❖ **“Ortiqcha fakti top” metodi**- bu berilgan 3-4 ma'lumotdandan eng to'g'ri yoki noto'g'risini, vaziyatga mos sarlavha yoki xulosa topishga qaratilgan metod. Bunda vaziyatni o'z ongida tassavur qilib, 4 xil variantdan ortiqchasini topadi. Masalan,

Savol: Sizga maktabdagi spektaklda ro'l ijro etish uchun taklif qilishdi, keyinchalik bu yovuz odamning roliga o'zgartirildi. Siz nima qilgan bo'lar edingiz?

- A) Rol menga to'g'ri kelmasligini aytardim.
- B) Menda boshqa rejalar bor deb spektaklda qatnashmagan bo'lardim.
- C) Rolni qabul qilib tavakkal qilar edim.
- D) Qobiliyatli do'stimni taklif qilgan bo'lar edim.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yildagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda ushbu maktablar bunyod etilgan. Prezident maktablari tashkil etishning asosiy maqsadi iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Ushbu maktabda o'qimoqchi bo'lgan talabgorlar imtihon asosida qabul qilinadi. Bu imtihon savollari muammoli masalalarni hal qilish va tanqidiy fikrlashga oid testlarni o'z ichiga oladi. Shu boisdan o'quvchilarning fikrlashini o'stirishda davr talabiga mos usul va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shu alohida ta'kidlash joizki, axborotlarni umumiy lashtirish va taqqoslash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- o'quvchilarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
- mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi;

- samarali munozaraga chorlaydi;
- o'quvchilarning o'zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;
- o'quvchilarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;
- o'quvchilarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;
- har qanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;
- o'quvchilarda personajlarga bo'ladigan iztirobini o'stirishga yordam beradi;

O'z tanqidiy fikrlashini maqsadga qaratish va motivlashtirish qobiliyatiga ega bo'lish, o'z istakmayllarini faol boshqarishga intilish har bir daqiqa o'z shaxsini takomillashtirishda foydalanish uchun vaqtni qadrlash eng muhimdir.